

BOLALARDA KREATIV G'OYALARNI SHAKLLANTIRISH

Karimova Navbaxar Mahmudjanovna

Xorazm viloyati, Gurlan tumani 9-sonli Shirintoy nomli Ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi

Email: Mahmudjanovna's@gmail.com **Tel:** +998941107775

Annotatsiya: Ushbu maqola yosh bolalarning fikrlash doirasi va uni kengaytirish usullari haqida so'z yuritadi. Kreativlik o'zi nima, qanday ma'nosi bor va qo'llanishi ham ifodalab ketilgan. Bolaning yoshligidan maktab davrigacha bo'lgan davrlarida kreativ fikrlash holatlari va usullari ham o'rin olgan.

Kalit so'zlar: kreativlik atamasi, ijodkorlik xususiyati, o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorligi, fikrlash elementlari, jamiyat mezonlari, fikrlashga undash, jalb etish, kreativ g'oyalarning tug'ilishi, boshlang'ich ta'lim.

Kirish qism

O'zbekistonda ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro talablarga javob beradigan kadrlarni tayyorlash haqida so'z yuritish ekanmiz, o'quvchilarni nafaqat har tomonlama yetuk, ilm asoslarini mukammal egallagan, balki kreativ fikrlay oladigan, g'oyaviy jihatdan chiniqqan, kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassisi qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy talabidir. Kreativlik so'zi ilk bor 1922-yilda AQSH olimi D.Simpson tomonidan qo'llanilgan. Ushbu atama orqali shaxs qolipdagi, stereotip, odatiy tafakkurdan voz kechish qobiliyatini ta'riflagan. Kreativlik lotincha "create"- yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor degan ma'nolarni ifodalaydi.

Asosiy qism

Kreativlik individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorgarligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijobiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Quyida muhokama va natijalarni ko'rib chiqamiz. O'qituvchi bilan o'quvchi hamkorligi o'qituvchining o'quvchilarga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi. U asta-sekin faollashib o'quv harakatlariga aylanadi. Natijada o'qituvchi va o'quvchi munosabati hamkorlik pozitsiyasiga o'tadi. Ammo bu jarayonda o'qituvchi nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi talab etiladi. Negaki ayni shu jarayonda o'qituvchi o'zi bilmagan holda bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishdan to'sib qo'yishi mumkin. Materiallar tahlilining ko'rsatishicha, bolalarda kreativlikni rivojlantirishda hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama harakterga ega bo'lib o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo, bu ta'lim jarayoni to'liq o'qituvchining hukmronligi ostida degan fikrning tug'ilishiga asos bo'lmasligi

kerak. Izlanishlar natijasiga ko'ra bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e'tibor qaratish zarur.

- 1) Ular tomonidan ko'p savollar berilishini rag'batlantirish va bu odatni qo'llab quvvatlash;
- 2) Bolalarning mustaqilligini rag'batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) Bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etish uchun imkoniyat yaratish;
- 4) Bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish.

Boshlang'ich ta'lim - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. Birinchi prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, "Maktabgacha ta'lim bolani sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. Maktabgacha ta'lim bola olti-yetti yoshga yetgunicha davlat va nodavlat maktabgacha tarbiya bolalar muassasalarida hamda oilalarda amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Jamiyatda mustaqil fikrlaydigan erkin shaxsni shakllantirish hozirda zamon talabi bo'lib turibdi. Bizda ya'ni pedagoglarda o'z qadr-qimmatini anglaydigan, kuchli, irodali, to'liq e'tiqodli insonlarni tarbiyalash imkoniyati mavjud. Jamiyat hayotining mezonlari bu yuksak manaviyatli insonlarni shakllantirish. Bolalarga kelsak, ularni dunyoviy odamga aylantirish muhim vazifalardan sanaladi. Bola qachon fikrlay boshlaydi u kimnidir yoki nimanidir tan olishni o'rgangan paytdan boshlab, fikrlash elementlari yuzaga chiqa boshlaydi. Bola yangi narsani bilgan narsasi bilan taqqoslaydi va ularning bir-biriga o'xshash yoki farqli ekanligini aniqlaydi. Bola 8 oylik bo'lganda, u nutqini tushuna boshlaydi. Avvaliga u intonatsiya va mimikaga ko'proq e'tibor beradi. Tez orada u intonatsiyani, ya'ni ovozning nutqini o'zgartirganda, uning umumiy ma'nosini tushuna boshlaydi. Maxsus mashqlar katta rol o'ynaydi. Unga biror narsa (masalan, soat) bir necha marta ko'rsatiladi va xuddi shu narsa aytiladi. Bu davrdan boshlab biz kattalar bolalarga ijodkorlikni o'rgatamiz va ular bilan birga o'ynash ahamiyatini tushuna boshlaymiz. Bu eng muhim mezonlardan biri hisoblanadi. Farzandlarimizning intellektual qobiliyatlari va salohiyatlarini kelajaklari uchun rivojlantirib borishimiz lozim. Bu orada ijodiy fikrlash degan tushuncha bor. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish orqali, bolalar ma'lumotni turli nuqtai nazardan tahlil qilishni, yangi narsalarni kashf qilishni o'rganadilar. O'z nuqtai nazarining yashirin tomonlari, noaniq muammolarni hal qilish uchun turli g'oyalarni ishlab chiqish, vaziyatlar va hodisalarning oxirini oldindan ko'ra bilish qobiliyatlarini ham birgalikda taraqqiy ettiradilar. Ijodiy fikrlash quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi:

- 1) Fikrlash tezligi. Bu imkon qadar qisqa vaqt ichida ko'proq g'oyalarni yaratish qobiliyatidir;
- 2) Fikrlashning moslashuvchanligi. Bu umumlashtirish uchun noyob qobiliyatdir;

3) G'oyalarning o'ziga xosligi. Bu noyob g'oyalarni hayot jarayoniga qo'llash qobiliyatidir;

4) Ehtiyotkorlik bilan o'ylash. Bu g'oyalarni murakkablashtirish qobiliyatidir.

Bugungi globallashuv jarayoni va axborot oqimining jadallashuvida, bolani to'g'ri ma'lumot olishga o'rgatish va shu bilan ularni himoya qilish axborot xurujlari muhim va dolzarb masalalardan biriga aylandi. Chunki bugungi kunda Maktabgacha ta'lim vazirligi "Birinchi qadam" Davlat dasturini qabul qildi va shu asosda amalga oshirish mumkin. Bolani ushbu dastur asosida o'rgatish va bolaning ijodkorligini oshirish, rivojlanish markazlari, bola o'zi tanlagan markazda ta'lim olishi belgilab berildi.

Xulosa. Ta'lim jarayonidagi islohotlar bolaning ijodini rivojlantirish va takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Bolalar uchun yaratilgan bunday imkoniyatlar ularning ijodkorligini oshirishga zamin yaratadi, ma'lumotni to'g'ri qabul qilishlari va ularga adekvat javob berishlariga undaydi. Ma'lumotlarni kuzatish va tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik, o'quvchilarning kreativ tafakkurini shakllantirish zamon talabi. Bu jarayonda esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarning roli katta.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нуралиева Д. М. ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ //Uzbek Scholar Journal. – 2022. – Т. 6. – С. 39-43. Нуралиева, Дилдора Мамуржонова. "ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ." Uzbek Scholar Journal 6 (2022): 39-43.

2. Нуралиева, Д. М. (2022). ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ. Uzbek Scholar Journal, 6, 39-43 International Conference on Advance Research in Humanities, Sciences and Education

3. Нуралиева, Дилдора Мамуржонова. "ОСОБЕННОСТИ ОБЩЕНИЯ ДЕТЕЙ И РОДИТЕЛЕЙ В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ." Uzbek Scholar Journal 6 (2022): 39-43.

4. Mamurjonovna N. D. PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS. – 2022.

5. Mamurjonovna, Nuraliyeva Dildora. "PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS." (2022): 115-121.

6. Mamurjonovna, N. D. (2022). PSYCHOLOGICAL SERVICE AND ITS ROLE IN FAMILY RELATIONSHIPS.

7. Nuralieva D. M. THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY //Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. – 2020. – С. 405-410.

8. Nuralieva, D. M. "THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY." Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества. 2020.

9. Nuralieva, D. M. (2020). THE CONCEPT OF PSYCHOLOGICAL ASSISTANCE TO THE FAMILY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 405-410).

10. Нуралиева Д. М. КОНЦЕПЦИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЫ СЕМЬИ //ББК Ю953. – 2020. – С. 405.